

**IQTISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIYAVIY
SOG'LOMLASHTIRISHNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI:
RIVOJLANGAN XORIJ VA O'ZBEKISTON TAJRIBALARI**

To‘raboyev Mirshakar Muzaffarovich
Osiyo Xalqaro Universiteti magistr talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada bugungi kunda bankrotlik institutini sog'lomlashtirish choralari samaradorligi zamonaviy amaliy va nazariy muhokamalarning dolzarb masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kreditorlar va qarzdorlar, xodimlar bilan hisob-kitoblar va dividendlar, moddiy-texnika va texnologik baza.

KIRISH

Bugungi kunda bankrotlik institutini sog'lomlashtirish choralari samaradorligi zamonaviy amaliy va nazariy muhokamalarning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda "monitoring" va "moliyaviy tiklanish" tartib-qoidalariga bo‘lgan so‘rovlari ortib bormoqda, ammo ular potensial bankrotlar uchun ijobiy natijalarga erishish ehtimoli kamroq. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish - bu kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini (kompaniyaning o‘z majburiyatlariga muvofiq da’volarni to‘lash qobiliyatini) oshirishga qaratilgan bankrotlik protseduralaridan biridir.

Inqirozlarning salbiy oqibatlari obyektiv metodologiyani ishlab chiqish va iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish vositalarini izlash muammosini dolzarb bo‘lib qo‘ydi. Chunki, birinchidan, bu beqaror xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik xavfini kamaytirishga yordam beradi, ikkinchi, u chinakam ishonchli korxonalar uchun yangi rivojlanish yo‘llarini ochadi. Korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishning samarali usullari va mexanizmlarini qo‘llash menejerlarga ongli va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida biznesning rivojlanishiga, shuningdek, butun iqtisodiyotning o‘sishiga turtki bo‘ladi. Ushbu barqarorlik shartlariga quyidagilar kiradi:

a) kreditorlar va qarzdorlar, xodimlar bilan hisob-kitoblar va dividendlar, ulushlar to‘lash;

b) moddiy-texnika va texnologik bazani yaxshilash va yangilash uchun bank kreditlari va investitsiyalarini olish imkoniyati;

v) korxonaning tijorat banklari va investorlar oldidagi qarzini o‘z vaqtida to‘lash.

Davlat mamlakat iqtisodiy hayotidagi muhim institutdir. Shu bois mamlakat ichida sodir bo‘layotgan jarayonlar jamiyat, korxonalar va alohida fuqarolar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratuvchi muayyan mexanizmlar yordamida nazorat qilinishi kerak.

Korxonaning to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi, shuningdek, moliyaviy majburiyatlarga ega bo‘lishining ko‘plab sabablari bor, ammo shuni ta’kidlash kerakki, bunday vaziyatda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish asosiy vositalarni yangilash, tuzilmani takomillashtirish, birlashgan doimiy monitoring qilishda davlat yordami kerak. Har qanday korxona o‘zining to‘lovga layoqatsizligi va keyingi samarali rivojlanishning mumkin emasligi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarga duch kelishi mumkin. Korxonani inqirozdan olib chiqish uchun zarur bo‘lgan tartib-qoidalar qonun bilan tartibga solinishi kerak. Bunday holda, davlat siyosati korxonaning moliyaviy holatini normallashtirish uchun bir nechta dastaklarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, bu tartibga solish va qonunchilik choralarini:

1. Sanatsiya (budget mablag‘lari bilan ta’minalash).
2. Majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzni qayta tuzish.
3. Soliq to‘lovlari kechiktirishni ta’minalash, investitsion soliq imtiyozlarini taqdim etish.
4. Bankrotlik institutida reabilitatsiya jarayonlarining mavjudligi.
5. Ayrim toifadagi tashkilotlar uchun bankrotlik, moliyaviy sog‘lomlashtirish va qayta qurish xususiyatlarining mavjudligi .
6. Banklardan olingan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.
7. Davlat kafolatlarini ta’minalash.
8. Boshqa chora-tadbirlar.

Normativ-huquqiy hujjalarning orasida kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash, davlat kafolatlarini berish alohida o‘rin tutadi. Ushbu usullar davlatdan moliyaviy yordam olish imkoniyatini beradi. Ularning davlat xaridlari tizimidagi korrupsiya darajasini pasaytirish bilan uyg‘unlashishi esa korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish mexanizmining shaffofligini ta’minalaydi.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

Tashkiliy va ma’muriy chora-tadbirlar korxonalarni inqirozdan samarali olib chiqishga qaratilgan bo‘lib, ularga tashkilotlarning moliyasini nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Bunday choralar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Tashkilotlar va ularning hamkorlari (etkazib beruvchilar, xaridorlar, kreditorlar) o‘rtasida kelishuvlarga erishishda yordam berish.

2. Ularga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi choralarni qo'llash uchun mezonlarni aniqlash va tashkilotlar ro'yxatini tuzish.
 3. Tashkilotlarning moliyaviy holatini doimiy monitoringini tashkil etish.
 4. Davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.
 5. Moliyaviy sog'lomlashtirish rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqish talabi va ularning bajarilishini nazorat qilish.
 6. Davlat xaridlari va buyurtmalari.
- Ammo korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishning samarali mexanizmini ta'minlash uchun ushbu ikki guruh usullarini bir vaqtning o'zida qo'llash kerak, shunda davlat bankrot korxonalar foizini minimallashtirishga qodir bo'ladi.
- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996) Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), Soliq kodeksi (2007), Jinoyat kodeksi (1994), O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni (2003), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi (2017) Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2019) Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2018) qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2019) qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiy nochor korxonalarning sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (2004) va tegishli boshqa qonun hujjalarda iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish sohasida davlatning roli va ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

NATIJALAR

Bankrotlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organi amalga oshiradi. Bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat boshqaruvi boshqa organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bankrotlik sohasidagi vakolatlari:

- pul majburiatlari va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha bankrotlik taomillarida

O‘zbekiston Respublikasining kreditor tariqasidagi talablarini taqdim etishning yagona tartibini tasdiqlaydi;

- sud boshqaruvchilari sifatida faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslarning attestatsiyadan o‘tish tartibini, ularga nisbatan malaka va kasbga oid talablarni hamda sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritish tartibini tasdiqlaydi;
- sud boshqaruvchilari faoliyati tartibini tasdiqlaydi;
- sanatsiya fondini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibini belgilaydi;
- ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan bankrot korxonalarining mol-mulkini realizatsiya qilish tartibini belgilaydi;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organining vakolatlari:
- to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lmay qolgan, zarar keltirib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarini aniqlash maqsadida ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining moliyaviy ahvoli monitoringini yuritadi;
- ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatları bo‘yicha qarzi bor korxonalarining bankrotligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqida ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat etadi;
- sud boshqaruvchilari attestatsiyasini o‘tkazadi hamda sud boshqaruvchilarining yagona reyestrini yuritadi;
- ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarini sudgacha sanatsiya qilish, ularning sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruvi rejalarini kelishib oladi;
- ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarini davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish qanday borayotganligi, shuningdek bunday korxonalarining bankrotligi taomillari jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- sud boshqaruvchilari faoliyati ustidan qonunchilikka muvofiq nazoratni amalga oshiradi, sud boshqaruvchisining faoliyatida qonunchilik muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzilganligi aniqlangan taqdirda uni vazifasini bajarishdan ozod qilish haqida iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat etadi;
- moliyaviy ahvoli monitoringi yuritilayotgan korxonalarining rahbarlari yoki boshqa mansabdor shaxslariga mazkur korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyati haqidagi materiallar taqdim etilmaganligi yoki o‘z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun jarima soladi;
- qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

MUHOKAMA

Ko‘plab xorijiy mamlakatlar (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shvetsiya, Gollandiya va boshqalar) amaliyotining tajribasi shuni ko‘rsatadi, nochorlik zamonaviy tizimining asosiy elementlaridan biri bankrotlik masalalari bo‘yicha muayyan majburiyatlarga ega bo‘lgan, qonun hujjatlari harakatlarini nazorat qilish va hukumatning ushbu sohadagi harakatlariga nisbatan mos keluvchi tavsiyalar tuzishga qodir bo‘lgan maxsus hukumat muassasasi mavjudligi hisoblanadi (nochorlik tizimining boshqa asosiy elementlari qonun hujjatlari, mutaxassislar instituti, sud tizimi va jamiyatda bankrotlik zaruratini tushunib yetish hisoblanadi).

Xorijiy mamlakatlarda bankrotlik bo‘yicha davlat organlarining eng ko‘p uchraydigan funksiya va vakolatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- bankrotlik bo‘yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish va ushbu sohada qonun tashabbuslari bilan chiqish;
- nochorlik xaqidagi ishlar bo‘yicha statistika axborotlarini to‘plash, tahlil qilish va hukumatga taqdim etish;
- bankrotlik xaqidagi ishlar bo‘yicha turli qarorlarni amalga oshirish natijalari va oqibatlari haqida ma’lumot to‘plash va tahlil qilish;
- nochorlik sohasida davlat siyosati bo‘yicha hukumat uchun tavsiyalar ishlab chiqish;
- bankrotlik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini tashkil qilish, ularning kasbiy darajasini baholash va litsenziyalash.

Qoidaga ko‘ra, bankrotlik bo‘yicha davlat organlarining vakolatlari va funksiyalari qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda bankrotlik bo‘yicha davlat organlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Buyuk Britaniya uchun xos bo‘lgan model kredit muomalasini himoya qilish, qarzdorning aktivlarini kreditorlar orasida taqsimlashning samarali va tezkor mexanizmlarini yaratishga yo‘naltiriladi. Bankrotlik jarayoni davomida korxona ustidan nazoratni kreditorlar nomidan harakat qiladigan uchinchi tomon qo‘lga kiritadi.

Britancha modelning ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan kamchiligi shundaki, uning doirasida korxonani sog‘lomlashtirish emas, balki uni tugatish yaqqol rag‘batlantirilar, chunki kreditorlar, birinchi navbatda, og‘ir ahvolga tushib qolgan kompaniyani qutqarishdan emas, balki uning aktivlarini sotishdan manfaatdor bo‘lar ekanlar.

AQShda va, ayniqsa, Fransiyada qabul qilingan modellar iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha makroiqtisodiy vazifalar va qarzdorning aktivlarini taqsimlashning samarali mexanizmlarini yaratish bo‘yicha

vazifalarni hal qilishning uyg‘unlashuviga asoslanadi. Xususan, Fransiyada nochorlik instituti ko‘p jihatdan qarzdor kompaniya manfaatlarini himoya qilishga, uni tarkibiy qayta qurishga yo‘naltiriladi. AQSH qonunchiligi qarzdorga to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lgan yuridik shaxs ustidan nazoratni saqlashga imkon beradi va qarzdorning belgilangan vaqt muddati davomida kompaniyani qayta tashkil etish bo‘yicha o‘z rejasini taqdim etish imtiyozli huquqini ta’minlaydi. Qarzdor foydasiga huquqlarning taqsimlanishi ko‘p jihatdan siyosiy tanlov hisoblanadi, chunki ularga nisbatan tugatish yo‘li bilan faoliyatni to‘xtatish emas, faoliyat yuritayotgan korxonalar sifatida bankrotlik xaqida ish qo‘zg‘atilgan kompaniyalarni saqlab qolish ustuvor deb tan olinadi. Bu modelning jiddiy bir kamchiligi qarzdorning o‘z huquqlarini suiste’mol qilishi mumkinligi hisoblanadi.

XULOSA

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi nochorlikni tartibga solish faqat kreditorlar manfaatlarini ta’minalash ustuvorligidan kelib chiqib tuzilishi lozim deb uzil-kesil tasdiqlashga imkon bermaydi. Nochorlikni tartibga solishning zamonaviy rivojlangan tizimlarining aksariyatiga xos bo‘lgan jihat konkursli ishlab chiqarish davomida qarzdorning aktivlarini sotib yuborish kabi bankrotlikning klassik mexanizmiga qo‘sishimcha ravishda biznesni saqlab qolish bo‘yicha reabilitatsiya jarayonlarining mavjudligi va rivojlanishidan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizqulov B. Ilg‘or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali 9-son, 2008yil, 35-36 b.
2. Abdullayev R. Mo‘l hosil yetishtirish agrotexnik tadbirlarni sifatli o‘tkazishga bog‘liq. //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali- 4-son, 2011 yil, 8 -b.
3. Yusupov N.S. Agrarnie reformi v Kitai: dostijeniya i problemi. T.: -Fan.-2005 188 s.
4. GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES FO Narzullayeva - Innovative Development in Educational Activities, 2023
5. LINGUOCULTUROLOGY AS A COMPLEX SCIENTIFIC DISCIPLINE F Narzullayeva - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2022
6. NOMINATIVE AND EXPRESSIVE FUNCTIONS OF LANGUAGE STUDY FO Narzullayeva - Innovative Development in Educational Activities, 2023

7. Cognitive Features of Perception as a Kind of Cognition MA Narzullayeva, Firuza Olimovna, Baxronova Spanish Journal of Innovation and Integrity 12 (No:12 for the month of November)
8. TILNING NOMINATIV VA EKSPRESSIV FUNKSIYALARINING O'RGANILISHI F Narzullayeva - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023
9. Narzullayeva Firuza. "English Phraseological Units With Somatic Components". CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, Vol. 1, no. 1, Oct. 2020, pp. 29-31,
10. NARZULLAYEVA FIRUZA MAIN CHARACTERISTICS OF SOMATIC LEXICAL GROUPS IN ENGLISH ЯЗЫК И КУЛЬТУРА Ежегодный альманах: материалы XV международной научно-практической конференции, Челябинск, 2020.
11. Narzullaeva Firuza, POLYSEMY AND ITS TYPES IN THE NON-RELATED LANGUAGES. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021,pp.379-383.
12. Narzullayeva , F. O. (2023). NOMINATIVE AND EXPRESSIVE FUNCTIONS OF LANGUAGE STUDY. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 35–40. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/886>